

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

«XALQ IJODIYOTI» FAKULTETI

«MUSIQA NAZARIYASI» fanidan



KURS ISHI

Mavzu: «LAD»

BAJARDI: 1- kurs «FEJR» bo'limi talabasi

Ko'shatova Iroda

Toshkent 2015

REJA

I. Kirish.

II. Asosiy qism:

- **LADLAR.**
- **TONALLIKLAR POFONADOSHLIGI. XROMATIZM. XROMATIK GAMMA.**
- **TONALLIKLARNI ANIQLASH**
- **MODULYATSIYA.**

III. XULOSA

KIRISH

San'atning eng muhim va keng xalq ommasiga kirib boruvchi turlaridan biri musiqa san'atidir. Unda badiiy mazmun tovushlar (ohang) orqali bayon etiladi va musiqaning o'ziga xos ifoda vositalarini o'zaro bog'lovchi muayyan qoidalarga asoslanadi.

Mazkur qoida va an'analar xalq (fol'klor) hamda mumtoz musiqasining (maqomlar va maqom yo'lidagi kuy va ashulalar) asrlar davomida vujudga kelgan tajribasi natijasida vujudga kelgan. Har qanday musiqani cholg'u sozida ijro etish yoki kuylash uchun musiqaning elementar nazariyasini bilish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, mazkur fanni o'qitish dastlab musiqa asarlarini ijro etish va ulardagi mavjud tovush va intervallar munosabatlari borasidagi bilimlarni o'zlashtirishni qamrab oladi.

Har qanday shakl va mazmundagi musiqa rang-barang tarkibiy qismlardan tashkil topadi va musiqa nazariyasi – musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya, musiqa asarlari tahlili, polifoniya va cholg'ushunoslik singari bir necha tarmoqlarga ajraladi.

Musiqaning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'lanishlari haqidagi materiallar musiqa va uning nazariyasiga oid fanlarda aks yettirilgan. Mazkur fanlarning boshlang'ich kursi musiqaning elementar nazariyasidir.

Musiqaning elementar nazariyasi kursi musiqa grammatikasi, musiqaning asosiy unsurlarini va ayniqsa, kuyni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu fan doirasida jumladan, musiqiy tovush xususiyatlari, uning nota matnida ifodalanishi texnologiyasi, musiqaning asosiy ifoda vositalari: metr-ritm, lad, garmoniya; ikki tovushning nisbati (interval), uch va undan ortiq tovushlar nisbati (akkord) va ular orqali ifodalanadigan musiqiy mazmun; lad, tonalliklarning musiqiy mazmunni ifodalash imkoniyatlari tahliliy o'rganiladi.

Badiiy obraz musiqa asarlarida o'ziga xos tarzda, ya'ni, ma'lum tovushlar va ohanglar sintezi sifatida aks yettiriladi. Musiqa asarlarida shakl va mazmun bir-birini to'ldiruvchi unsurlar sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Tovushlarning tonikaga nisbatan munosabatlari orqali aniqlanadigan o'zaro aloqalari tizimiga **lad**¹ deyiladi. Laddagi har bir tovushning roli va harakatining xarakteri uning **laddagi funktsiya**² sini aniqlaydi. Tovushlarning munosabatlari esa lad munosabatlari yoki funktsional munosabatlar deyiladi. Laddagi tovushlarning soni, o'rasidagi tonlar miqdori, funktsional munosabatlari turli xil shaklda ifodalanish mumkinligi musiqa taraqqiyoti tarixida turli tizim (soz)larning vujudga kelishiga asos bo'ladi (masalan, pentatonika, diatonika, qadim yunoniston lادلari tizimi, geksaxordlar tizimi, major-minor tizimi va boshqalar).

Muayyan lad tizimiga tegishli tovushlar **pog'ona**, pog'onalarining balandlik bo'yicha izchil joylashuvi **ladning tovushqatori** deb aytiladi. Ladning birinchi pog'onasi, tonika – I raqam bilan belgilanadi, ikkinchisi – II, keyingilari – III, IV, V va hokazo.

Misollarda «Qora sochim» va «Mog'ulcha» xalq qo'shiqlarining tovushqatolari

51



keltirilgan. Ularning tarkibi bir xil.

Lekin, «Qora sochim» dagi tonika – *re* tovush, «Mog'ulcha»ning tonikasi – *sol*. «Qora sochim»da *re* tovush – turg'unfunktsiya, «Mog'ulcha»da esa noturg'un. Birinchi misolda *mi-bemol* tovush II- pog'ona, ikkinchi misolda u VI- pog'ona roliga ega; VI- pog'onaning *sol* tonikaga tortilishidan ko'ra II- pog'onaning *re* tonikaga intilishi kuchliroqdir. Chunki, noturg'un tovushdan turg'un tovushgacha orasi kanchalik kam (tor, kichik) bo'lsa, shunchalik tortilish kuchi ham oshadi.

¹Lad – (lotincha *modus*, frants. va ingl. *mode*) – totuvlik, inoqlik, hamjihatlik, ittifoq; rus tildagi «lad» so'zining ma'nosi grekcha *δμωία* so'zi ma'nosiga teng keladi (musiqiy estetik ma'noda garmoniya ni bildiradi); quloqqa yoqimli eshitiladigan tovushlarning balandlik bo'yicha uyg'unlashuvi.

²Funktsiya – (lotincha *functio*) – bajarish, amalga oshirish; munosabatlar tizimidagi birorta narsa (kimsa) ning faoliyati, vazifasi, roli.


Mi-bemol dan *sol* gacha orliq 2 ton, *re* gacha esa – 0,5 tonga teng. Demak, ladning ta’rifidan qelib chiqan holda, tovushqatorning qaysi bir pog‘onasi tonika qilib olinganligiga qarab, noturg‘un tovushlarning roli, vazifasi, harakati, boshqachaaytganda funktsiyasi hamda o‘zaro munosabatlari o‘zgaradi, vaboshqa xil lad hosil bo‘ladi.

Lad tovushqatorini pog‘onalari orasidagi ton va yarim tonlarning muayyan ketma-ketligi ***tovushqatorning tuzilishi (strukturasi)*** deb ataladi. Tovushqatorning tuzilishi kuy ohangining turli emotsional tuslariga ta’sir qiladi. Ladning u yoki bu emotsional rangi (yorug‘, osoyishta yoki mayus, qayg‘uli) avvalom tonika bilan III- pog‘ona orasidagi tonlar miqdori bilan aniqlanadi. Shunga muvofiq holda, lادلarning xilma-xilligi ikkita asosiy turga turkumlanadi: 1) tonikadan III- pog‘onagacha 2ton bo‘lsa ***majorli ladlar***, 2) tonikadan III- pog‘onagacha 1,5 ton bo‘lsa ***minorli ladlar***.

Harfiy belgilash tizimida major ***"dur"*** – qattiq, minor ***"moll"*** – yumshoq so‘zlar bilan belgilanadi.

Major va minor ladlar garmonik tizimi.

Bu xildagi ladlar oktava hajmida bo‘lib, yettita pog‘onadan iborat. Ularda tonika rolini quloqqa yokimli eshitiladigan uch tovushdan iborat ohangdoshlik (garmoniya) bajaradi. Turg‘un tonika ohangdoshligini tashkil qiladigan ***I, III va V pog‘onalar turg‘un pog‘onalar*** deb hisoblanadi. Major ladida turg‘un



pog‘onalar – majorli ohangdohlikni, minorda – minorli ohangdoshlikni hosil qiladi. Qolgan pog‘onalar – II, IV, VI va VII - ***noturg‘undir***. Ular ham, o‘z navbatida, noturg‘un ohangdoshlikka yig‘iladi:

Ushbu garmonik tizim ohangdoshlikning ichidagi tovushlar munosabatlarini hamda ohangdoshliklarning o'zaro alokalarini uyushtirilgan holga keltiradi. Shuning uchun, noturg'un tovushlar nafaqat tonikaga, balki uning ohangdoshligini tashkil qiluvchi tovushlar (III, V pog'onalar) ga ham intiladigan bo'ldi. *Noturg'un*

intilishi VII > I < II > III < IV > V < VI *tovushning turg'un tovushga*
tovushning tortilishi deb aytiladi.
Noturg'un tovushning intilishi
bo'yicha turg'un tovushga o'tishi tovushning yechilishi deb aytiladi.

53

Ladning noturg'un pog'onalari tovushlar tortilishi tizimiga bo'ysunib, ko'yidagicha yechiladi:

VII- pog'ona faqat yuqoriga tortilib, I- pog'ona, Tonikaga yechiladi.

VI- pog'ona faqat pastga tortilib, V- pog'onaga yechiladi.

II- va IV- pog'onalar ikki tomonga qo'shni turg'un tovushlarga echilishi mumkin.

Biroq, II- pog'onaning tonikaga echilishi, IV- pog'onaning III- pog'onaga echilishi tabiiyroqdir. Chunki, avvalom turg'un pog'onaning turg'unlik darajasi (III- pog'onaga qaraganda I- pog'onaning turg'unlik darajasi yuksakroq), so'ng noturg'un pog'onadan turg'un pog'onagacha uzoq-yaqinligi e'tiborga olinadi.

4-§. Lad pog'onalari funktsiyalari.

Major va minor lادلarning tovushqatori va pog'onalarining funktsiyalari barcha oktavalarda saqlanadi. Shuning ushun tovushqatorning VIII- pog'onasini ham tonika deb bilish lozim. Lad tovushqatorining pog'onalari maxsus nom va tartib raqamga egadir:

- I. pog'ona – **tonika** (*T; t*)
- II. pog'ona – *pasayuvchi* (*yoki yuqorigi*) *yetakchi tovush*

- III. pog'ona – *yuqorigi medianta*³
- IV. pog'ona – *subdominanta*⁴ (S; s)
- V. pog'ona – *dominanta*⁵ (D)
- VI. pog'ona – *pastki medianta*
- VII. pog'ona – *ko'tariluvchi(yoki pastki) yetakchi tovush*

Lad funktsiyalarini aniqlashda tovushlarning Tonikaga nisbatan kvarta-kvintali aloqalari eng muhim deb hisoblanadi. Bunday akustik qardoshlikka asoslangan



aloqalar faqat Tonika bilan Subdominanta va Tonika bilan Dominanta orasida hosil bo'ladi. Shuning uchun, T, S va D asosiy pog'onalar deb hisoblanadi.

54

Mediantalar – III- pog'ona tonika va dominanta o'rtasida, VI- pog'ona tonika va subdominanta o'rtasida joylashgan pog'onalar.

55



Yetakchi pog'onalar – VII- pog'ona yuqoriga qarab, II- pog'ona pastga qarab tonikaga intiladigan pog'onalar.

Gamma.Tetraxord. Tonallik.

Major va minor lادلarning tarixiy rivojlanishi ularning doimiy o'zaro ta'sirida, bir biriga yaqinlashish harakatida o'tgan. Natijada, musiqa amaliyotida asta-sekin lادلarning uch xili shakllanib chiqdi. Bular **tabiiy, garmonik va melodik turlaridir**. (Bundan buyon lادلarga tabiiy major, garmonik major, melodik major,

³Medianta – (lotincha *medians*) – o'rtada turadigan.

⁴Subdominanta – (lotincha *sub* – ostida, va *dominanta*) – pastki dominanta

⁵Dominanta – (lotincha *dominans*) – h'ukumronlik (ustunlik) qiluvchi.

tabiiy minor, garmonik minor, melodik minor deb aytiladi.). Ushbu turlarning bir biridan farqi pogʻonalar orasidagi masofalarga bogʻliq.

Tabiiy major va minor tovushqatorlarining tuzilishi diatonikton va yarim tonliklar izchil joylashuvi bilan farqlanadi.

Tabiiy major gammasi, yaʼni tovushqatorning tonikadan boshqa oktavadagi tonikagacha tuzilishi, qoʻyidagi struktura (tuzilish)ga ega:

56 *tabiiy majorning tuzilishi*

1 1 0.5 1 1 1 0.5
I II III IV V VI VII I

1ton – 1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton – 1ton – 0,5ton.

Major gammasi ikkita bir xil tuzilgan – **1ton – 1ton – 0,5ton**, – tetraxord⁶dan iborat. **Tetraxord** – kvarta xajmidagi 4 ta pogʻonali tovushqatordir. Pastki tetraxord I- pogʻonadan, yuqoridagi tetraxord V- pogʻonadan boshlab tuziladi. Tetraxordlar orasidagi masofa – 1ton.

Tabiiy minor gammasining strukturasi (tuzilishi) qoʻyidagicha koʻrinishga ega

57 *tabiiy minorning tuzilishi*

1 0.5 1 1 0.5 1 1
I II III IV V VI VII I

boʻladi: **1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton.**

Minorning tetraxordlari har xilcha tuziladi:

pastki tetraxord – **1ton – 0,5ton – 1ton,**

yuqoridagi tetraxord – **0,5ton – 1ton – 1ton.**

Lad – abstrakt tushunchadir. U muayyan balandlikda mustahkamlanib, faqat musiqa yangrashida gavdalanadi. Lad tonikasi 12 ta pogʻonali musiqaviy tizimning birorta tovushida joylashsa, oʻsha tovush **ladning balandligi**, yaʼni **tonalligini** aniqlaydi. Musiqaviy tizimning har bir tovushidan bitta major va bitta minor ladni tuzish mumkin, shunda tonalliklarning soni kamida 24 ta boʻladi.

⁶Tetraxord – (grekcha τετρά –to`rt, χορδή - tor)


(I.S.Baxning «Yaxshi temperatsiyalangan klaviri»ni eslang). Bunga qo‘shilib, tovushlar engarmonizmi tamoyili ham tatbiq etilsa, tonalliklar soni yanada ortib boradi.

Masalan, lad majorli bo‘lsa, tonikasi – *lya-bemol* tovushga joylashgan bo‘lsa – izlangan tonallik *lya-bemol major (As-dur)* bo‘ladi; lad – minor, tonikasi – mi, izlangan tonallik – *mi-minor (e-moll)*. Harfiy belgilash tizimi bo‘yicha major tonalliklari katta harf bilan, minor tonalliklari kichik harf bilan yoziladi.

MAJOR LADI VA TONALLIKLARI

Major va minorning garmonik bilan melodik turlari tabiiy turlaridagi ayrim noturg‘un pog‘onalar *xromatikyarim tonga* o‘zgarishi natijasida hosil bo‘ladi. Alteratsiyalangan pog‘onalar ladning asosiy pog‘onalari o‘rniga variant sifatida ishlatiladi. Ammo ular bajaradigan lad funksiyasini hech ham o‘zgartirmaydi. Faqatgina mazkur pog‘onalarning tortilish darajasi kuchayadi, xalos. Shuning uchun, major va minorning garmonik bilan melodik turlari diatonik ladlar deb hisoblanadi.


Garmonik majorda VI- pog‘ona yarim tonga pasayadi. Uning yaqqol belgisi – xromatik yarim tonga pasaygan VI- pog‘onasidan VII- pog‘onasigacha hosil bo‘lgan oraliqning 1,5 tonga teng kelishidir.

Uning  yuqorigi tetraxordi – **0,5ton–1,5ton–0,5ton** izchiligida ifodalanadi:

Melodik major gammasining faqat *pasayuvchi harakatida VII- va VI- pog‘onalar yarim tonga pasayadi*. Gammaning *ko‘tariluvchi harakati* esa *tabiiy major* gammasining o‘zidir.

Uning yuqorigi tetraxordining **pastga tomon tuzilishi** – **1ton – 1ton – 0,5ton** – tabiiy minorning yuqorigi tetraxordi tuzilishi bilan bir xil.

59



60

Temperatsiyalangan musiqaviy tovushqatorning har bir asosiy pogʻonasidan *majorlad* tuzilsa tonalliklar oʻrtasida faqat **Do-major (C-dur)** tonalligi asosiy pogʻonalarni oʻz ichiga qamrab oladi. Qolgan tonalliklar tovushqatorninghosila pogʻonalarisiz toʻgʻri boʻlib tuzilmaydi. *Re-majorga* 2 ta hosila pogʻona qoʻshiladi – *fa-diez, do-diez*, *Mi-majorga* 4 ta diez – *fa, do, sol, re*, *Fa-majorga* – 1 ta bemol – *si*, *Sol-majorga* – 1 ta diez, *Lya-majorga* – 3 ta diez, *Si-majorga* – 5 ta diez.

Asosiy pogʻonalar	c	d	E	f	g	a	h
Tonalliklar	C- dur	D- dur	E- dur	F-dur	G- dur	A- dur	H- dur
Kalit belgilari	0	2 #	4 #	1 l	1 #	3 #	5 #

Hosila pogʻonalarga tegishli alteratsiya belgilari asarning har bir nota yoʻlida kalitdan soʻng yoziladi. Ularga ***kalit belgilari*** deyiladi.

Kalit belgilari 7 tadan ortiq yozilmaydi. Kalit yonida hamisha bir turdagi belgilar – yoki faqat diezlar, yoki faqat bemollar yoziladi. Bu jihat boʻyicha tonalliklar diezli va bemolli tonalliklarga ajratiladi.

Kalit belgilari har doim qatʼiy oʻrnatilgan tartibda yoziladi.

Diezlar qatori – **fa, do, sol, re, lya, mi, si**. (bemollar qatorining teskarsi).

61



Bemollar qatori – **si, mi, lya, re, sol, do, fa**. (diezlar qatorining teskarisi).

Diyezli major tonalliklari. Har bir diezli major tonalligida ohirgi kalit belgisi tovushqatorining VII- pogʻonasiga muvofiqdir.

62

G-dur T D-dur T A-dur T E-dur T H-dur T Fis-dur T Cis-dur T

Bemolli major tonalliklari. Diezli minor tonalligida ohirgi kalit belgisi

63

F-dur T B-dur T Es-dur T As-dur T Des-dur T Ges-dur T Ces-dur T

tovushqatorining II- pogʻonasiga toʻgʻri keladi.

Ladlarning garmonik va melodik turlarida yoki boshqa bir sabab bilan roʻy beradigan oʻzgarishlar **tasodifiy alteratsiya belgilari** yordamida koʻrsatiladi. Bu xildagi belgilar oʻzgaradigan pogʻonaning notasi yoniga, yaʼni undan oldin (notaning chap tomonidan) yozilishi lozim. Aytgancha, kalit belgilari diezlar boʻlsa, tasodifiy belgilar bemol, bekar ham boʻlishi mumkin va aksincha.

Garmonik minorda VII- pogʻona yarim tonga koʻtariladi. Uning yaqqol belgisi – VI- pogʻonasidan xromatik yarim tonga koʻtarilgan VII- pogʻonasigacha hosil boʻlgan oraliqning 1,5 tonga teng kelishidir.

64

garmonik minorning tuzilishi

I 0.5 I 1 0.5 1 0.5
I II III IV V VI VII I

Uning yuqorigi tetraxordi **0,5ton – 1,5ton – 0,5ton** lar izchiligida ifodalanadi:

Shunday qilib, garmonik major va garmonik minordagi yuqorigi tetraxordlarning tuzilishi va ohanggi bir xildir.

Melodik minor gammasining faqat *ko'tariluvchi harakatida VI- va VII-pog'onalar yarim tonga ko'tariladi*. Gammaning *pasayyuvchi harakati* esa *tabiiy minor* gammasining o'zidir.

Uning yuqoridagi tetraxordining **yuqoriga tomon tuzilishi** – **1ton – 1ton – 0,5ton**



– tabiiy majorning yuqorigi tetraxordi tuzilishi bilan bir xil.

Misollardan ko'rinadiki, melodik major va minordagi yuqorigi tetraxordlarining tuzilishi va ohanggi bir xil bo'ladi.

2-§. Minor tonalliklari.

Minor ladi strukturasi (1ton–0,5ton–1ton–1ton–0,5ton–1ton–1ton)

asosiy pog'onalardan tuzilishi natijasida quyidagi tonalliklar va kalit belgilari hosil

66	Asosiy pog'onalar	c	d	E	f	g	a	h
	Tonalliklar	c-moll	d- moll	e- moll	f- moll	g- moll	a- moll	h-moll
	Kalit belgilari	3 ♭	1 ♭	1 #	4 ♭	2 ♭	0	2 #

bo'ladi:

Diyezli minor tonalliklar. Har bir bemolli major tonalligida ohirgi kalit belgisi tovushqatorining IV - pog'ona (S) siga muvofiqdir.



Bemolliminortonalliklar. Bemolli minor tonalligida ohirgi kalit belgisi tovushqatorining VI- pogʻonasiga toʻgʻri keladi.

Major va minor tonalliklar kalit belgilari koʻpayishi boʻyicha (*do-major* dan oʻng tomonga diezli tonalliklar, chap tomonga bemolli tonalliklar) tartibga solinsa, tonalliklarning kvinta boʻyicha joylashuvi tamoyili namoyon boʻladi: *fa* dan *do*




gacha masofa kvintaga teng, *do* dan *sol* gacha – kvinta, *sol* dan *re* gacha – kvinta va hokazo.

Eʼtibor bering (!), tonalliklar ketma-ketligi va kalit belgilari tartibi bir xil.

Kvinta boʻyicha joylashgan tonalliklar qatori ettita kalit belgigacha davom etilsa, musiqa amaliyotida qoʻllaniladigan barcha tonalliklarning «kvinta qatori» hosil qilinadi.

Tonalliklarningkvintaboʻyichajoylashuvidavrashaklidahamtasvirlanadi. Bunga

69




«kvintadavrasi» deb nom berildi

Kvinta davrasidagi qo'shni tonalliklar eng yaqin qardosh tonalliklar deb hisoblanadi. Negaki, ular 6 ta umumiy tovushga egalik qiladi.

Kvintadavrasijadvalidanshunisi ko'rish mumkinki, muayyan kalit belgilar soniga bitta major va bittaminor tonalliklar muvofiq keladi.

Masalan, *Fa-major* tonallikka *re-minor* tonallik, *Re-majorgasi-minor* muvofiqdir. Kalit belgilari bir xil bo'lgan tonalliklarning tovushqatorlari ham bir xil bo'ladi. Lekin, ularning tonika tovushlari boshqa-boshqa pog'onalariga joylashgan. Majorning tonikasi minorning III- pog'onasiga, minorning tonikasi majorning VI- pog'onasiga to'g'ri keladi. Binobarin, tonikalarning orasi uchta pog'ona va 1,5 tonga baravar. Xullas, bunday tonalliklarning tovushqatorlari bir biriga nisbatan xuddi parallel tarzda joylashgandek bo'ladi.



Bitta

tovushqator va bir xil kalit belgilariga ega major va minor tonalliklar **parallel tonalliklar** deb aytiladi.

Nomdosh tonalliklar deb umumiy tonika tovushiga ega bo'lgan major va minor



tonalliklarga aytiladi

Nomdosh tonalliklar bir biridan uchta kalit belgiga farq qiladi: major belgilarini bilish uchun minor tonallikdan diezlar ko'payishi tomoniga ("kvintadavrasida" o'ngga) uchta belgi sanaladi, yoki minor belgilarini topish uchun major tonallikdan bemollar ko'payishi tomoniga (chapga) uchta belgi sanab o'tiladi (69-misolga qarang). Masalan, *Do-majorda* – 0 belgi, undan chap tomonga uchta belgi sanab o'tilgandan so'ng, **do-minor** 3 ta bemoli bilan kelib chiqadi:

Re-majorda – 2 ta diez, *re-minorda* – 1 ta bemol;

Fa-majorda – 1 ta bemol, *fa-minor* – 4 ta bemol.

Engarmonik teng tonalliklardebbalandligi bir xil, ammo yozilishi va nomi turlicha bo'lgan bitta ladga tegishli tonalliklarga aytiladi.

Tonalliklarning engarmonik tengligida diezli tonallik bemolli tonallika almashinadi va aksincha, bemolli tonallik diezli tonallikka aylanadi. Engarmonik teng tonalliklarning kalit belgilari hammasi bo'lib 12 ta ♭ belgiga baravar bo'libchiqadi: 6 bemol + 6 diyez = 12ta belgi, 5 # + 7 ♭ = 12 ta belgi.

Musiqada tatbiq etilgan engarmonik teng tonalliklardan 6 ta major va 6 ta minor tonalliklardir:

H-dur = Ces-dur; Fis-dur = Ges-dur; Cis-dur = Des-dur

gis-moll = as-moll; dis-moll = es-moll; ais-moll = b-moll.

Azaldan xalq musiqasi hamda ilk kasbiy musiqasi bir ovozlik shaklida rivojlangan. Bir ovozlik san'ati asosida melodik (monodik⁷) ladlar yotadi. Ular tarixan kechroq shakllangan ko'p ovozlik musiqasida ham o'z mohiyatini yo'qatmay, xozirgacha ulardan ayrimlari folklor va kompozitorlik ijodida keng qo'llaniladi.

Turlimelodikladlarorasidabarqarorstrukturagaegabo'lganvamusiqaaamaliyotidakeng tarqalgandiatonikavapentatonikaladtizimlariajralibturadi. – Diatonika ladlari *gemitonli*, ya'ni tovushqatorda yarim tonliklar mavjud, pentatonikaladlari esa *angemitonli*⁸, ya'ni tovushqatorda yarim tonliklar yo'q bo'ladigan ladlar tizimiga kiradi.

⁷Monodiya – (grekcha μονωδία – bittaning qo'shig'i, μovo – bir, ωδῆ – qo'shiq) – bir ovozli kuylash (solo).

⁸Angemitonika – (grekcha an – -siz, hemi – yarim, tonos – ton) yarimtonliklardan holi tovushqator.

Diatonika – sof kvinta (3,5 ton) bo'yicha joylashishi mumkin oktava hajmidagi

103



yettita pog'onali tizimdir.

Bu tamoyilga asoslangan ladlar guruhi diatonik yoki **tabiiy ladlar** tizimi deb yuritiladi. Bular – grekcha nomlari saqlanib kelgan – *ioniy, doriy, frigiya, lidiya, miksolidiy, eoliya va lokriya* laddir. Ushbu lادلarning hammasi diatonik lادلarga qo'yilgan talablarga javob beradi:

- Oktavalik tamoyili, ya'ni har bir pog'ona o'z funktsiyasini barcha oktavalarida saqlaydi;
- Oktava xajmida yettita turli pog'onaning mavjudligi;
- Balandlik bo'yicha qo'shni pog'onalar oralig'i butun ton yoki yarim tonga baravar bo'lishi. Tovushqatori 5 ta butun ton va 2 ta yarim tonlikdan iborat bo'lishi;
- Yarim tonliklarning o'rtasidagi oraliq kvartadan kam yoki kvintadan keng bo'lmasligi.

Tabiiy ladlar bitta umumiy tovushqator zahirida tuziladi. Ammo har bir lad unga kat'iy biriktirilgan tovushqator strukturasi ega.

104



Ионий лад структураси – $1 - 1 - 0,5 - 1 - 1 - 1 - 0,5$.

Дорий лад -----//----- - $1 - 0,5 - 1 - 1 - 1 - 0,5 - 1$

Фригий лад -----//----- - $0,5 - 1 - 1 - 1 - 0,5 - 1 - 1$

Лидий лад -----//----- - $1 - 1 - 1 - 0,5 - 1 - 1 - 0,5$

Миксолидий лад ----//-- - $1 - 1 - 0,5 - 1 - 1 - 0,5 - 1$

Эолий лад -----//----- - 1- 0,5 - 1 - 1 - 0,5 - 1 - 1

Локрий лад ---- // ----- - 0,5 - 1 - 1 - 0,5 - 1 - 1 - 1

Иониладningstrukturasi tabiiy major strukturasi ga,

eoliyladesa tabiiy minor strukturasi ga o'xshaydi.


Lekin,

ularni farqlaydigan muhim narsa shundaki,

ushbu ladlar pog'onalarining o'zaro aloqalarivatonikaganisbatan munosabatlariturlich anamoyon bo'ladi.

Tabiiy ladlar ohangi bo'yicha majorli va minorli ladlarga ajratiladi. Ulardan

105



uchtasi major va to'rtasi minorli ohangga ega.

Majorli tabiiy ladlar bitta tonikadan tuzilsa, ular bir birdan bittagina o'zgargan pog'onasi bilan farq qiladi: *liidiy lad* ioniy laddan ko'tarilgan IV- pog'onasi bilan, *miksolidiy lad* pasaytirilgan VII- pog'onasi bilan ajralib turadi.


Minorli tabiiy ladlar ham huddi shunday alomatga bo'ysunadi: *doriy lad* eoliy laddan ko'tarilgan VI- pog'onasi bilan, *frigiyy lad* – pasaygan pog'onasi bilan farqlanadi. *lokriyy lad* pasygan II- va V-pog'onalari bilan ajralib turadi.

106



(liidiy lad)

107



(miksolidiy lad)

O'zbek xalq qo'shug'i "Astagina"

108




O'zbek xalq qo'shug'i "Gul uzay"

109



T.Sodikov. R.Glier. "Gulsara"

110



Pentatonika musiqa tarixida ilk lad tizimlaridan biri bo'lib, dunyo bo'yicha keng tarqalgan. Pentatonika jaxonning turli-tuman xalqlar musikasi zamini sifatida hamongacha xizmat qilib kelmoqta. Xitoy, Vetnam, Shotlandiya, Rosssiya'ning Povolje, Tatarstan, Bashqortostan, shimoliy Amerika va Afrika kuylari pentatonika ladlariga asoslangan. Bundan tashqari bu kompozitorlik ijodida ham ahamiyatli o'rinda turadi.

Pentatonika – pog'onalar kvinta bo'yicha joylashishi mumkin besh pog'onali

111



tizimdir.

Uning ladlari quyidagi talablarga javob beradi:

- Oktavalik tamoyili (diatonika bilan umumiydir);
- Oktava hajmida beshta pog'ona mavjudligi;
- Qo'shni pog'onalar oralig'i bir ton va bir yarim tonga teng kelishi, tovushqatori 3 ta butun ton va 2 ta bir yarim tonlikdan iborat bo'lishi;
- Bir yarim tonliklar o'rtasida kvarta yoki kvinta intrvalibo'lishi shart.

Pentatonikaning beshta turidan major va minor ohangiga egalar amaliyotda ko'proq tatbiq etiladi.

112



birinchi

Pentatonika
turining

strukturasi – 1 – 1 – 1,5 – 1 – 1,5 (majorli)

ikkinchi turining -----//----- 1 – 1,5 – 1 – 1,5 – 1

uchinchi -----// ----- -----// ----- - 1,5 – 1 – 1,5 – 1 – 1

to'rtinchi -----//----- -----//----- 1 – 1,5 – 1 – 1 – 1,5

beshinchi -----//----- -----//----- - 1,5 – 1 – 1 – 1,5 – 1 (minorli)

Majorli va minorli pentatonikaning birinchi pog'onasida tabiiy major va minor tonikasiga muvofiq uchtovushliklar tuzilishi mumkin, lekin ularni majorli




pentatonikada I-, III-, IV- pog'onalar, minorli pentatonikada I-, II-, IV- pog'onalar tashkil etadi.

113

Dunyoda keng tarqalgan xalq ldlari orasida yana bir o'zigaxos lad mavjud. U tovushqatorining tetraxordlari

tuzilishida orttirilgan sekunda siborligi uchun gemiolika⁹ deb ataladigan strukturaga tegishlidir. Bu xildagi lad vengr xalq musiqasiga hos bo'lib, uni «vengrcha gamma» yoki *ikkilanma garmonik minor* ladi deb ataydi. Unga yaqin bo'lgan, qardosh ladlar azarbayjon, arman, arab va boshqa sharq xalqlari musikasida uchraydi.



Minor ohangdagi «Vengrcha lad» ham oktava hajmidagi pog'onali tovushqatorga ega.

Ushbu ladda tabiiy minorga qaraganda IV- va VII-pog'onalari xromatik yarim tonga ko'tariladi. «Vengrcha lad» ikkita orttirilgan sekunda ega.

Minorning garmonik turi *major-minor ldlar garmonik tizimiga* tegishlidir. Va shu tizimning qoidalaridan kelib chiqib, garmonik minorda yozilgan asarlar kuy yo'lida ortirilgan sekunda harakat manetilardi. Chunki, ladning VII- pog'onasi I- pog'onaga, VI- pog'onasi V- pog'onaga yechilishi shartli talab edi.

«Vengrcha lad» va undan hosil qilingan *majorli turi* (II- va VI- pog'onalari



pasaytirilgan holda keladi),

yevropa va rus kompozitorlari sharqiy obrazlarni

tasvirlashda ushbu ldlardan

foydalanganligi tufayli, musiqa nazariyasida *ikkilanma garmonik major va minor* deb ataladigan bo'ldi.

⁹Gemiolika – (grekcha γμιόλιος) - bir yarimli.

Tonalliklar pog'onadoshligi

Major va minor tonalliklari o'zaro garmonik teng tonalliklar guruhini tashkil etadi.

Tonika uchtovushliklari tabiiy va garmonik ko'rinishda berilgan tonalliklarning pog'onalaridan hosil bo'lgan tonalliklar *pog'onadosh tonalliklar* deyiladi.

Musiqqa amaliyotida har bir asardagi dastlabki (ilk) tonallik *bosh tonallik* deyiladi, asar rivojlanishi jarayonida uni almashtiruvchi tonallik esa *yondosh tonallik* deyiladi.

Har bir tonallik 6 tadan pog'onadosh tonallikka ega. Masalan, do majorga quyidagi tonalliklar pog'onadosh bo'ladi:

Fa major 4 - pog'ona asosiy pog'onalar

Sol major 5 - pog'ona tonalligi.

Lya minor 6-pog'ona asosiy pog'ona

Re minor 2- pog'ona tonalligiga parallel.

Mi minor 3- pog'ona

Fa major 4 (garm.) pog'ona – minor subdominanta tonalligi.

Lya minorga quyidagi tonalliklar pog'onadosh bo'ladi:

Re minor 4 - pog'ona asosiy tonalliklar

Mi minor 5 – pog'ona pog'onadoshligi.

Do major 3 – pog'ona – asosiy tonallikka parallel.

Fa major 6 – pog'ona asosiy pog'ona

Sol major 7 - pog'ona tonalliklariga parallel.

Mi major (garm.) 5 – pog'ona – major dominantasi tonalligi.

Tabiiy va garmonik *do major* va *lya minor* pog'onalarida tuzilgan major va minor uchtovushliklari yuqorida ko'rsatilgan pog'onadosh tonalliklarning har biriga tonika bo'la oladi.

Xromatik gamma va ularning yozilishi


Barcha xromatik gammalar birin – ketin keladigan yarim tonliklardan tuziladi.

Xromatik gamma mustaqil ko'rinishli lادلarni hosil qila olmaydi, uning negizi major yoki minor gammasi hisoblanadi.

Xromatik gamma major yoki minor tabiiy gammalaridagi katta sekundalarning xromatik tovushlar yordami bilan to'ldirilishidan hosil bo'ladi. Ularning yozilishi qoidasi tonalliklar uyushiqligiga asoslanadi.

Majorda bu qoidalar quyidagi tartibda bo'ladi: gammaning barcha asosiy pog'onalari o'zgarmaydi, katta sekundalar yuqoriga tomon I, II, IV va V – pog'onalarining ko'tarilishi bilan to'ldiriladi, pastga tomon VI – pog'onaning ko'tarilishi o'rniga, VII– pog'ona pasaytiriladi.


Pastga tomon harakat qilganda, katta sekundalar: VII, VI, III, II–pog'onalar pasaytirilishi bilan to'ldiriladi, V – pog'onani pasaytirish o'rniga IV – pog'ona ko'tariladi.



Ushbu misoldan ko'rinib turganidek, yuqoriga tomon harakat qilganda, VII – pog'onani pasaytirish va pastga tomon harakat qilganda, IV – pog'onani ko'tarish vaqtida o'zgartirilgan barcha pog'ona tovushlari tabiiy yoki majordagi pog'onadosh tonalliklar pog'onalariga teng bo'lishi zarur.

Masalan, Iya diyez va sol bemol tovushlari do majorga pog'onadosh tonalliklarda uchramaydi, shuning uchun xromatik gamma bo'ylab yuqoriga tomon harakat qilinganda VI – pog'ona ko'tarilmasligi va pastga tomon harakat qilinganda V – pog'ona pasaytirilmasligi zarur.

Minor xromatik gammasining yuqoriga tomon harakatini yozish qoidasi parallel majorga o'xshash bo'ladi. Minorning 1 pog'onasi unga parallel bo'lgan majorda VI – pog'ona bo'ladi, buning natijasida I – pog'ona ko'tarilmaydi, uning o'rniga II – pog'ona pasaytiriladi. Pastga tomon harakat qilinganda minor xromatik gammasi nomdosh major gammasi singari yoziladi.



Shuni ta’kidlash lozimki, musiqa amaliyotida ba’zan xromatik gammalarni ko’rsatilganicha yozish qoidasidan chekinish hollari ham uchraydi. Masalan, tertsiyalar bilan xromatik harakat qilinganda o’qilishi qulay bo’lishi va tertsiyalarni boshqa intervallar bilan engarmonik tartibda almashtirmaslik uchun shunday qilinadi.

Kalit oldi va tasodifiy al’teratsiya belgilari, kuyning tuzilishi, uning boshlanishi va tugash bosqichi, uning tonikasi, uchtovushligini belgilovchi asosiy va tayanch tovushlar berilgan kuyning lad va tonalliklarini aniqlovchi asosiy vositalar hisoblanadi.

Kuyning so’nggi tovushidan tonallikni hamisha ham aniqlash mumkin bo’lavermaydi. Chunki, ba’zi asarlarda kuy tonikadan boshqa bosqichlarda tugashi, bundan tashqari, kuy birinchi bosqich tovushi bilan boshlanmasligi ham mumkin. Agar kuy jo’r bo’luvchi ovozlarga ega bo’lsa, uning ladi va tonalligini aniqlash oson bo’ladi. Bunda jo’r bo’luvchi akkordlar yordam beradi. Ayniqsa, oxirgi akkord tonika tovushlaridan tuzilgan bo’ladi.

Musiqa asarining tonalligini aniqlashda asosan uchta usuldan foydalanish maqsadga muvofiq:

- 1) kalit oldi belgilariga ko’ra;
- 2) boshlanish va tugash tovushlari orqali va;
- 3) asarni ijro etib yoki ijroni tinglab aniqlash, yakuniy xulosaga kelish mumkin.

Musiqa asarining biror tonallikdan boshqa tonallikka ko’chirilishi **transpozitsiya**¹⁰ deyiladi. Transpozitsiya ayniqsa, vokal ijrochiligida keng qo’llaniladi. Bundan tashqari, transpozitsiya biror musiqa asarining asl ko’rinishidan boshqa bir

¹⁰Transpozitsiya– lotinchaso’zbo’lib, joynio’zgartirishdeganma’nonibildiradi. Ents. muz. slovar’. M., 1959. b.273.

asbobga, masalan, qashqar rubobi uchun yozilgan p'esani g'ijakka moslab qaytadan yozishda ham qo'llaniladi.

Transpozitsiya uch usul orqali, ya'ni:

- ***mazkur intervalda o'zgarish yasash;***
- ***kalit belgilarini o'zgartirish*** va;
- ***kalitning o'zini o'zgartirish*** yo'li bilan amalga oshiriladi.

Biror intervalda transpozitsiya qilish lozim bo'lganda, oldin transpozitsiya qilinadigan tonallik aniqlanadi. Masalan, re majordan kichik tertsiya yuqoriga transpozitsiya qilsak, yangi tonallik fa major bo'ladi. Barcha notalar original tonallikda qaysi pog'ona va akkordlarga mos kelishi oldindan aniqlanib, fa major tonalligiga ko'chiriladi.

Komp'yuter tizimlarida, masalan, nota matnlari tahririga mo'ljallangan *Sibelius* komp'yuter dasturining 1, 2, 3, 4, 5, 6 - versiyalarida bu ma'lum murvatni bosish orqali engil amalga oshiriladi.

Ikkinchi usul xromatik yarim ton yuqoriga yoki pastga qarab transpozitsiya qilishdan iborat. Bu holda kalit yonidagi belgilar o'zgaradi, notalar o'z holicha qoladi, tasodifiy belgilar esa yangi kalit belgisining ko'tarilishi yoki pasaytirilishiga qarab o'zgarib turadi.

Xulosa

Muzika asarlarini eshitganda yoki ijro, etganda ulardan hosil bo'lgan tovushlarning o'zaro munosabatda ekanligini ko'ramiz. Bu hol birinchi navbatda, muzikaning, xususan kuyning rivojlanish protsessida o'z ifodasini topadi. Bunda ayrim tovushlar barcha tovushlar orasidan ajralib, tayanch tovushlar xarakteriga ega bo'ladi. Odatda, kuy mana shu tayanch tovushlarning birortasida tugallanadi.

Yuqorida aytilganlardan muzikada tovushlar balandligining o'zaro munosabati ma'lum bir sistemaga bo'ysundirilgan ekanligi de-gan xulosaga kelish mumkin. Turg'un va noturg'un tovushlarning o'zaro munosabati sistemasi *lad* deyiladi.

Biror kuy yoki muzikaviy asar ma'lum bir ladga asoslanadi.

Lad muzika tovushlari balandlik munosabatini tartibga kel-tiradi va muzikaning boshqa ifoda vositalari bilan birga uning mazmuniga moye keladigan ma'lum bir xususiyatini yaratib beradi.

Tayanch tushunchalar

1. **Lad** - o'zaro bog'langan musiqaviy tovushlarning tonika deb ataladigan tayanch tovush doirasida joylashuvi.

2. **Turg'un tovushlar**– tugallanganlik, tinchlik holatlarini yaratuvchi tayanchtovushlar.

3. **Noturg'un tovushlar**– tugallanmaganlik taassurotlarini beruvchi, keyingi harakatni va yechilishni talab qiluvchi tovushlar.

4. **Lad tovushqatori**- laddagi tovushlarning balandlik nisbati bo'yicha joylashuvi.

5. **Gamma** - lad pog'onalarining bir tonikadan navbatdagi oktavaning tonikasigacha bo'lgan pog'onama-pog'ona, ketma-ket harakati.

6. **Tonika** - ladning asosiy tayanch tovush vazifasini bajaruvchi I – pog'onasi.

7. **Tonika ohangdoshligi** - laddagi turg'un tovushlardan iborat akkord.

8. **Major ladi** - turg'un tovushlari uchta tovushdan iborat bo'lib, major uchtovushligini hosil qilgan yetti pog'onali lad.

9. **Tabiiy major ladi** - pog'onalari *ton, ton, 0,5 ton, ton, ton, ton, 0,5 ton* tizimi bo'yicha joylashgan lad.

10. **Dominanta** – ladning tonikasidan sof 5 yuqorida joylashgan asosiy pog'onasi.

11. **Subdominanta** – ladning tonikasidan sof 5 pastda joylashgan asosiy pog'onasi.

12. **Medianta** - ladning T bilan D o'rtasidagi tovush.

13. **Submedianta** – ladning T bilan S o'rtasidagi tovush.

14. **Yetakchi tovushlar** - ladning YII va II

15 **Tetraxord** - kvarta intervali doirasida, sekundalar bo'yicha joylashgan, 4 tovushdan iborat melodik yo'nalish.

16. **Pastki tetraxord** – gammaning I, II, III, IV pog'onalari harakatidan hosil bo'lgan melodik yo'nalish.

17. **Yuqorigi tetraxord** – gammaning V, VI, VII, (I) pog'onalari harakatidan hosil bo'lgan melodik yo'nalish.

Tabiiy major gammasining pastki va yuqorigi tetraxordlari **major tetraxordidan** iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2002 yil 21 fevral 54– son buyrug'i bilan tasdiqlangan va kuchga kiritilgan 5141000 – “Musika” ta'lim yo'nalishi bo'yicha Davlat ta'lim standarti.
2. Musiqaning elementar nazariyasi fani bo'yicha namunaviy o'quv dasturi – Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashining 1999 yil 28 iyunidagi 13–sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.
3. V. Xvostenko. Zadachi I uprajneniya po elementarnoy teorii muziki. Moskva, “Muzika”, 1964
4. V. A. Vaxromeev. «Musiqaning elementar nazariyasi», Toshkent- «O'qituvchi» 1980 yil.
5. L. Krasinskaya, V. Utkin., «Elementarnaya teoriya muziki», Moskva- «Muzika» 1991 god.
6. G. Fridkin., «Prakticheskoe rukovodstvo po muzыkalnoy gramote» M. «Музыка» 1981g.
7. Muzikalniy entsiklopedicheskiy slovar. M. «Sovetskaya entsiklopediya» 1990g.
8. I. A. Akbarov. «Muzika lug'ati» T. 1987 yil.
9. I. Hamroev. «Solfedjio» Birovozlik. T., «O'qituvchi» 1971 yil.
10. I. Hamroev. «Solfedjio» Ikki ovozli. T., «O'qituvchi» 1977 yil.